



## JAMIYATIMIZDA KO'RISHDA NUQSONIGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI

<sup>1</sup>Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi  
2-kurs talabasi [abdulaziztoshpolatov26@gmail.com](mailto:abdulaziztoshpolatov26@gmail.com)  
+998943661073

<sup>2</sup>Jo'raboyev Jo'rabek Furqat og'li

Defektologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi  
[juraboyevjurabek506@gmail.com](mailto:juraboyevjurabek506@gmail.com)  
+998932841909

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7869885>

### ARTICLE INFO

Received: 19<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> April 2023

Online: 27<sup>th</sup> April 2023

### KEY WORDS

*Kompensatsiya, psixik jarayon, individual, korreksiya, umumiy, tipik, individual, xulq-atvor, jamiyat, oila.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola orqali biz jamiyatimizdagi turli xil nuqsonlarga ega, imkoniyati cheklangan shaxslarning psixik jarayoni hamda muammolarini o'rganish orqada ularni ijtimoiy hayotga maqsadli va to'g'ri yo'naltirish ulardagi minimum imkoniyatlardan maksimum darajada foydalanish deb aytib o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. U yoki boshqa voqealardagi jarayonlar sabab ruhiyatimizda sezilarli darajada o'zgarish yuz beradi, shuningdek salomatligimizga ta'sir ko'rsatadi. Endi esa bir tasavvur qilib ko'ring xuddi shunday holatlar alohida yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarda, ya'ni ko'zi ojizlarda, karsoqovlar harakatida va boshqa nuqsonlarga ega bo'lgan kishilarda qay darajada shakllanadi. Ularning individual rivojlanishida oila, mahalla, do'stlar muhiti, xullas, umumiy qilib aytganda jamiyat havosi biz xohlaymizmi yo'qmi o'z ta'sirini ko'rsatadi.*

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda yoshlar, o'quvchilarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Kishi dunyoga kelgandan so'ng, avvalo, uning ota-onasi, farzandini unib-o'sishini, kamol topishini istaydi. Kelajakda esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shu yurtning biror koriga nafi tegadigan barkamol avlod sifatida ulg'ayadi. Hozirgi vaqtga kelib dunyo aholisining soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tug'ilgan bolalarning aksariyatida esa turli xil nuqsonlar kuzatilmoqda. Ushbu holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan bir qancha omillar mavjud. Jumladan, ekologik holatning yomonlashuvi, turmush qurishda yo'l qo'yilgan xatolar va sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelmoqda. Lekin hozirgi vaqtga kelib davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ushbu turdagi shaxslarga ham keng yo'l ochdi. Maxsus maktablar hamda inklyuziv ta'limning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ularga ta'lim-



tarbiya berish jarayoni davlat standartlariga javob bera oladigan darajada shakllanib bormoqda.

Eng asosiysi sohadagi malakali mutaxassislar pedagogik usul va chora tadbirlar yordamida ushbu shaxslardagi bir necha turdagi nuqsonlarni korreksiyalash ishlari yo'lga qo'yilgan. Shu jumladan, ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixik rivojlanishida ham shu kabi holatlarni ko'rishimiz mumkin. Bunday shaxslar bilan ishlash davomida ularning psixologiyasini o'rganish lozim. E.L.Goncharova fikriga ko'ra maxsus psixologiya –bu jismoniy va ruhiy nuqsonlari bo'lgan odamlarning rivojlanish muammolarini o'rganadigan, psixologik qo'llab-quvvatlashni maxsus shakllariga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydigan psixologiyaning bir sohasidir. Ular bilan o'tkazilgan korreksion mashg'ulotlar, avvalambor, ularda hissiyot va irodani shakllantirish, yaqin atrofdagilarga ijobiy munosabatni rivoltantirishga e'tibor qaratiladi. Odamning ijtimoiyligi uning biologik holati bilan ajratilgan emas. Shaxsning individligi boshidayoq kiritilgan va shaxsiy sifati keyinchalik yuzaga keladi. Kelgusida u yuqori shaxsiy darajasi bilan namoyon bo'ladi.

Ko'rishda nuqsonga ega bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun birinchi navbatda ularning potensial imkoniyatini inobatga olgan holda bajarilishi zarur. Biz tabiatdagi hodisalarni 90% ni ko'rish orqali qabul qilamiz. Bunday kishilar esa ma'lum bir sababga ko'ra bu imkoniyatdan mahrum bolganligi barchamizga sir emas. Ular bilan olib boriladigan korreksion maqsadlarni qo'yish mobaynida uchta asosiy yo'nalish muhimdir. Bulardan biri rivojlanishning ijtimoiy holatini optimallashtirish uning ijtimoiy holatini yanada yuqori darajaga ko'tarish, boladagi yetakchi faoliyat turlarini rivoltantirish va ishga doir psixologik hosilalarni shakllantirish, ularga korreksion ta'sir etishdan oldin aniq bir ishlash modelini tuzish kerak. Ularning umumiy, tipik, individual singari turlari mavjud.

Korreksiyaning umumiy modeli- bu har bir shaxs taraqqiyoti, tevarak-atrof uni qamrab olgan olam haqidagi farazlarini chuqurroq, haqqoniy, kengroq bo'lishiga jamiyatdagi o'zgarishlar va ularni hozirgi faoliyatini analiz va sintez qila olish uchun zamin yaratadi. Bu modelda ko'zi o'jiz bolalarning sog'lig'i, mashg'ulotlarning vaqti aniq belgilanib olinadi. Tipik, ya'ni odatiy modelda esa amaliy harakatlarining turli komponentlarini o'zlashtirishga va shakllantirishga qaratilgandir. Uchinchi modelda esa individual formasida bu o'z ichiga ko'zi ojiz bolalarning o'ziga xos bo'lgan shaxsiy juhatlarini inobatga oladi, ya'nikim uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti hisobga olinadi.

Har bir bola yashaydigan ijtimoiy muhit bir emas, balki bir necha qavatdan iborat. Eng yaqin va birinchi qavat oilaviy muhitdir. Oilaga qaraganda kengroq qavatni bolaning qarindoshlari tashkil etadi. Va nihoyat, eng keng qavat ijtimoiy muhit hisoblanadi.

Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta'minlash bolaning o'zini xotirjam his qilishiga yordam beradi.

Korreksion ishlarning amalga oshirilishi bu faqatgina mutaxassislar bilangina cheklanib qolmay, balki uning oilasi ota-onalarining ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri ko'zi ojiz bolada saqlanib qolgan barcha imkoniyatlarini rivoltantirish va shu jamiyatga moslashtirishdir.

Nima sababdan biz ko'proq oila avval unda yuz beradigan munosabatlarga e'tiborli bo'lamiz, nima sababdan oila maskanida o'zimizni yaxshi, baxtli his etsak, ishimiz yurishgandek, omadimiz chopgandek bo'ladi? Chunki oila bizning hayotimizdagi eng aziz va



muqaddas dargoh! Faqat oilagina insonning baxtli bo'la olishi, o'zini kimlargadir kerakli his eta olishi yoki bo'lmasa o'zini ezilgan, omadsiz sezishga sabab bo'ladi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotning kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, uning inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom psixologik muhitli, nizo-janjalli, o'zaro mehr oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka -ukalariga nisbatan balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan ham mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, xudbin, yurt shu manfaatlariga zid, tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli odam bo'lib yetishishi mumkin.

Oilada to'g'ri tashkil etilgan muhit bolalarga ma'naviy va axloqiy xislatlarini, ularning ijobiy tushunchalarini, dunyoqarashlarini shakllantirib boradi. Ularni hayotga, mehnatga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga imkon beradi. Demak, biz bu turdagi bolalar bilan ishlashda ham ichki ham tashqi muhit sharoitiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ana shundagina biz sarflagan vaqtimiz, mehnatimiz va mablag'imiz o'zini oqlaydi va samarasini ko'rsatadi. Insondagi eng katta boylik bu salomatlikdir. Sog'lig'imizdagi turli xil nojo'ya o'zgarishlar, albatta, hayot faoliyatimizdagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida esa yo ruhiy yo bo'lmasa jismoniy jihatdan muammoga duch kelamiz. Masalan, bu holatni alohida yordamga muhtoj kishilarda, shuningdek, ko'rish nuqsoniga ega shaxslarda namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalarning to'g'ri bajarilishi o'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbat uyushtirishi, muloqot o'rnatishi ularda chuqur taassurot qoldiradi va faollik ko'rsatish sari undaydi. Demak, yoshlarimizni "Yangicha O'zbekiston - Yangicha dunyoqrash" ruhida tarbiyalash uchun, yuqorida keltirilgan, yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillardan asrash va ularni yetuk, komil, madaniyatli, hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida kamol toptirishda oila, mahalla maktab doimiy hamkorlikda ish olib borsa maqsadga muvofiq bo'lar edi!

Inson zoti ovqatsiz bir oy, suvsiz bir hafta, havosiz bir daqiqa yashaydi, ammo umidsiz kishi esa bir soniya ham yasholmaydi. Ushbu jumla orqali biz nima demoqchimiz?, ya'ni bu turdagi bolalar bilan ishlash davomida ulardagi o'ziga bo'lgan ishonchini uyg'otish yanada mustahkamlash, bir so'z bilan aytganda motivatsiya berishimiz zarur. Ular ruhiyatida ishonch deb atalmish so'zi dominant holda yurishi darkor. Buning zamirida biz ko'rsatayotgan muolajalar, ham ma'nan ham moddiy jihatidan o'z mevasini beradi.

### References:

1. N.Z. Abidova. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). Toshkent- 2017yil. 140-bet.
2. O.U. Avlaev, S.R. Mirzayeva Deviant xulq psixodiagnostikasi va korreksiyasi kitobi. Toshkent-2020. 3-bet.
3. uz.m.wikipedia.org
4. Toshpo'latov A. Q. Yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga tasir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar. Science and innovation. International scientific journal. (ISSN:2181-3337) 2022. 856-bet.
5. Z.T. Nishanova, G.K. Alimova. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya kitobi. Toshkent Ijod-Press 2019, 198-bet.
6. S.R. Mirzayeva, SH.R. Samarova, O.U. Avlaev. Umumiy psixologiya. Toshkent-2022, 68-bet.



7. G'.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'inov, F.A.Akramova,G.Solihova, G.Niyozmetova Oila Psixologiyasi "Sharq"Nashriyoti Toshkent-2007,11-bet.
8. E.G'oziyev Ontogenez Psixologiyasi Toshkent "NIF MSH" 2020-yil.131-bet.